



## XULQI OG'ISHGANLIK SIFATLARINI ILMIY TEKSHIRISH METODLARI VA UNING PROFILAKTIK DASTURI

Yuldashev Anvar Narmo'minovich

*Xalqaro innovatsion universitet Psixologiya mutaxassisligi 2-bosqich magistranti*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada voyaga yetmaganlar orasida uchraydigan xulqi og'ishganlik va deviant xulq-atvor muammolarini ilmiy-psixologik jihatdan o'rganish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda xulqi og'ishganlikni aniqlashda qo'llaniladigan zamonaviy psixodiagnostik metodlar, testlar va ularning amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, o'smirlar orasida huquqbuzarlik, agressivlik, qaramlik kabi salbiy holatlarning kelib chiqish omillari, ularning ijtimoiylashuv jarayonidagi psixologik asoslari ochib berilgan. Tadqiqot natijalari asosida xulqi og'ishgan yoshlar bilan ishlashga qaratilgan psixoprofilaktik dastur ishlab chiqilgan bo'lib, u ta'lim muassasalarida ijtimoiy-psixologik xizmat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** xulqi og'ishganlik, deviant xulq-atvor, voyaga yetmaganlar, psixodiagnostika, psixoprofilaktika, agressivlik, huquqbuzarlik, ijtimoiylashuv.

**Аннотация.** В статье рассматриваются научно-психологические аспекты изучения отклоняющегося и девиантного поведения среди несовершеннолетних. Проанализированы современные психодиагностические методы и тесты, применяемые для выявления склонности к отклоняющемуся поведению, а также их практическая значимость. Особое внимание уделено причинам правонарушений, агрессивного и зависимого поведения подростков, а также психологическим основам их девиантной социализации. На основе полученных эмпирических данных разработана психопрофилактическая программа, направленная на предупреждение негативных форм поведения в системе общего образования.

**Ключевые слова:** отклоняющееся поведение, девиантное поведение, несовершеннолетние, психодиагностика, психопрофилактика, агрессия, правонарушение, социализация.

**Annotation.** This article examines the scientific and psychological aspects of studying deviant and delinquent behavior among minors. The study analyzes modern psychodiagnostic methods and tests used to identify tendencies toward deviant behavior and evaluates their practical significance. Particular attention is paid to the causes of juvenile delinquency, aggression, and addictive behavior, as well as the psychological foundations of deviant socialization. Based on empirical research findings, a psycho-preventive program has been developed aimed at preventing negative behavioral patterns and enhancing the effectiveness of socio-psychological services in educational institutions.

**Key words:** deviant behavior, juvenile delinquency, minors, psychodiagnostics, psycho-prevention, aggression, socialization, prevention programs.

### KIRISH

Ma'lumki, zamonaviy psixologiya va devian xulq psixologiyasida voyaga yetmagan yoshlarning og'ishgan xulq-atvorini ilmiy tekshirish hamda usulbiy baholash ishlari o'ta dolzarb vazifalardan biri sanaladi. Qolaversa, og'ishgan xulqni tadqiq etish, uning oldini olishning profilaktik chora-tadbirlarini ishlab chiqish, fanlararo tadqiqotlarning predmeti sanaladi. Biroq, ushbu masalani psixologiya fani doirasida tadqiq etish, psixodiagnostik baholash, uning profilaktik dasturini ishlab



chiqish bo'yicha, o'ziga xos ilmiy-amaliy tajribalar mavjud. Va bu holat ko'plab yetakchi psixolog tadqiqotchilar va yosh olimlar uchun, katta qiziqish uyg'otmoqda. Aynan, mahalliy psixologik tadqiqotlarda og'ishgan xulq-atvorni o'rganishning ilg'or psixodiagnostik metodkialari va testlari tizimi, hanuzgacha bir tizimga keltirilmagan. Mazkur masalada yangi izlanishlar olib borish, psixodiagnostik usullarni mahalliy muhitga moslashtirish qolaversa, yangi chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish o'ta aktual masala sanaladi. Bundan tashqari, statistik ma'lumotlarga ko'ra, keyingi vaqtlarda, voyaga yetmagan o'smir yoshlar o'rtasida huquqbuzarlikchilikning barqaror o'sib borayotganini, mazkur masalada yangi izlanishlarni amalga oshirishni taqozo etmoqda. Hozirgi kunda, dunyo miqyosida voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarlik sodir etish holati, katta yoshdagi kishilarga qaraganda bir yarim barobar ko'p, natijani ko'rsatmoqda. Voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarlik sodir etishining asosiy sabablaridan biri bu, oilada va umumta'lim muassasalarida bolalarning yetarli darajada tarbiyalanmayotganligi hamda qarovsiz qolayotganligi sabab sifatida ko'rilmoqda. Bundan tashqari, noto'g'ri ta'lim natijasida o'sib yoshlarning konitiv, motivatsion va qadriyatli sohasi deformatsiyalanadi. Va shu orqali ularda deviant xulq-atvor sifatlari va noto'g'ri hayotiy tendensiyalar shakllanadi. Tabiatiga ko'ra, aynan shu omillar, "deviant ijtimoiylashuv"ning psixologik asosi bo'lib xizmat qiladi. Ya'ni giyohvandlik, o'g'irlik, firibgarlik, alkogolizm, fohishalik, uydan qochib ketish, maktabni tashlab ketish, boshqalarga tajovuz qilish, shular jumlasidandir. Shuning uchun ham, og'ishgan xulqli va deviant xulqqa moyil yoshlar bilan psixodiagnostik, psixoprofilaktik ishlar olib borish, jamiyat va davlat ravnaqi uchun, foydali vazifa sanaladi. N.L.Sobchikning yozishicha, muammoli yoshlarga amaliy psixologik yordam ko'rsatish ishlari, quyidagilarda o'z aksini topadi<sup>1</sup>.

- Psixodiagnostik tashxis;
- Psixologik maslahat ishlari;
- Psixoprofilaktika ishlar (O.A.Sokolova 2010)<sup>2</sup>;
- Pixokorreksiya;
- Psixologik trening;
- Professional amaliy xizmat;
- Psixologik tekshiruv.

Qoidaga ko'ra, yuqorida keltirilgan ishlarning barchasi psixodiagnostikadan boshlanadi, chunki u moyillikni, aybdorlikni, xarakterologik xususiyatlarni aniqlamasdan turib, keyingi vazifalarni amalga oshirish mumkin emas. Mazmunan,

<sup>1</sup> Собчик Л.Н. Искусство психодиагностики. СПб.: Реч, 2014. – С.66.

<sup>2</sup> Соколова О.А. Использование методов психологии при диагностировании человека при расследовании и раскрытии преступлений / О.А. Соколова // Юридическая психология. – 2010. – № 4. – С.49 - 51.



psixodiagnostika – bu insonning ichki dunyosini tavsiflovchi o‘zgaruvchan va doimiy qadriyatlar, shuningdek ularni o‘lchash usullari va vositalari bilan shug‘ullanadigan psixologiya amaliy sohasi sanaladi. Bugungi kunga qadar, dilekvent xulq (og‘ishgan xulq) va deviant xulq-atvorni tadqiq etishning an‘anaiviy keng tarqalgan, mashhur usullari sifatida, A.N.Oryolning “Deviant xulq-atvorga moyillikni aniqlash” metodikasi, “Kuk-Medleyning dushmanlik shkalasi”, Bantning “manipulyativ munosabatni o‘lchash” shkalasi, M.Sukermanning “Hayajonni izlash ko‘lami yoki hayotdan nimani xohlashni aniqlash” so‘rovnomasi, A. Ellisning “Irratsional ustanovka va zo‘ravonlik darajasini baholash” metodikasi, A.Yu.Yegorovanning “Tobe‘likka moyillikni aniqlash” testi, E. V. Zmanovskayaning “Ota-onalar tomonidan o‘smirda kimyoviy qaramlikni erta aniqlash” so‘rovnomasi, Michigan shtati universitetining “Alkogolizm testi” (MAST), B.Killingerning “Mehnatkashlik aniqlash” testi, P. Karnesning “Jinsiy qaramlikni aniqlash ckrening testi”, Tomsk rigidlikni aniqlash so‘rovnomasi (G.V. Zalevskiy), N.Ya.Ivanova, A.E.Lichkolarning “O‘smirlar uchun patoxarakterologik diagnostik” so‘rovnoma, E.G.Eidemillerning “Xarakter aksentuatsiyasini autoidentifikatsiyasi” metodikasi, Dj.Bukning “Uy.Daraxt.Odam” metodikasi kabi, usullar boshqa usullardan farqli ravishda, ancha ko‘proq e‘tirof etiladi. Ammo masalaning ikkinchi tomoni mavjud bo‘lib, aksariyat psixodiagnostik usullar og‘ishgan xulqni o‘rganish sharoitida, kriminogen xulqqa moyillik, deviant xatti -harakatlarni tashxis etish, tobe‘ xulqni aniqlash masalalariga bag‘ishlangani bois, biz o‘z tadqiqotimida muammoni empirik tadqiq etish shartlariga, o‘zgacha yondashishga harakat qildik. Ya‘ni voyaga yetmagan yoshlarning nafaqat og‘ishgan xulqqa moyillik jihatlari balki, ularning xarakterologik xususiyatlari, qadriyatlar va ustanovkalari tizimini ham psixodiagnostik baholashga harakat qildik. Va tadqiqotning maqsadiga mos natijani qo‘lga kiritishga muvaffaq bo‘ldik.

Frayburg so‘rovnomasi natijalari shuni ko‘rsatadiki, voyaga yetmaganlarning shaxslilik xususiyatlari bo‘yicha umumiy o‘rtacha ko‘rsatkichlari birinchi shkala asabiylashganlik voyaga yetmaganlarda 9 natijani qayd etgani va bu standart me‘yor bo‘yicha past darajani tashkil qilganligi aniqlangan. Bunga ko‘ra, voyaga yetmaganlarda o‘quv jarayonidagi faoliyatda asabiylashish darajasi past ekanligi bilan baholanadi. Ikkinchi o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladigan xulqi og‘ishganlik shkalasiga ko‘ra, voyaga yetmaganlarning natijalari 7 miqdorni qayd etganligi va bu voyaga yetmaganlarda kutilmagan vaziyatda xulqi og‘ishganlik holati paydo bo‘lmasligidan dalolat beradi. Uchinchi shkala bo‘yicha ya‘ni ruhiy siqilish bo‘yicha voyaga yetmaganlarning darajasi 8 koeffitsientni namoyon qilgan. Bu



ko'rsatkich ham standart me'yorga ko'ra, o'rtachadan past ekanligi bilan alohida izohlanadi.

To'rtinchi shkala bo'yicha ya'ni jizzakilik bo'yicha voyaga yetmaganlarning olgan natijalari 5 darajadagi natijani tashkil qilganligi va bu daraja voyaga yetmaganlarda o'quv jarayonidagi faoliyatda jizzakilik o'rtachadan past darajada yega ekanligini bildiradi.

Hozirgi kunda voyaga yetmaganlardagi agressiv xulq-atvorni o'rganishda ikki xildagi nazariy yondashuvga asoslaniladi. Olueyz va Pattersonlarning nazariyalari xulqi og'ishganlik haqidagi fan tadqiqotining metodologik asosi bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu nazariyada oilaning boshqaruv uslubi bilan agressivlik darajalarini bog'liqligi o'z aksini topgan. Olueyz ushbu ko'rsatkichlar orasidagi bog'liqlik sabablarini izlash uchun doimiy va o'zgaruvchan kattaliklarni tadqiq etdi.

Keyingi o'ta tajovuzkor xulq-atvor shkalasi bo'yicha voyaga yetmaganlarning olgan natijalari 7 darajani ko'rsatganligi va bu esa ularda o'ta xulqi og'ishganlik darajasi past shakllanganligini aks ettirgan. Tortinchoqlik shkalasi bo'yicha voyaga yetmaganlarning to'plagan qiymatlari 6 darajadagi qiymatni tashkil qilgan. Voyaga yetmaganlarda tortinchoqlik darajasi o'rta darajada rivojlanganligini ko'rsatganligi va ularga beriladigan vazifalarni bajarishi va insonlar bilan muloqot jarayoniga kirishganda u darajada qiyinchiliklarga duch kelmasligini va atrofdagi insonlar bilan munosabatlarga kirisha olishidan darak beradi.

Navbatdagi ochiqlik-oshkoralik shkalasi bo'yicha voyaga yetmaganlarning natijalari 5 qiymatdagi darajani ko'rsatganligi, voyaga yetmaganlardagi faoliyat darajasi biror-bir harakatni bajarish uchun o'zi va atrofdagi shaxslar bilan har qanday munosabatlarni amalga oshirishidan qat'iy nazar shaffof ekanligi va hech narsani yashirmasdan oshkora bajarishi bilan alohida xarakterlanadi. Demak, ijtimoiylashuv jarayonida asosan qadriyatlar, ijtimoiy normalar o'smirlikda tarkib topar ekan. Bu borada qadriyatlarining o'rni beqiyos bdir, ushbu qadriyatlar oiladan boshlanishi bilan xarakterlanadi. Ijtimoiylashuv jarayonida kattalardan ibrat olishning psixologik mexanizmlari namoyon bo'ladi. Ibrat olish kiynishdan to kasb tanlashgacha bo'lgan hodisalarni qamrab olgan. Ijtimoiy muhitning har xil ta'siri natijasida o'smirlarning psixik taraqqiyotida real voqelikning borgan sari chuqurroq, faol, amaliy aks ettirishidan iboratdir.

Ta'sirchanlik-o'zgaruvchanlik shkalasi bo'yicha voyaga yetmaganlarning natijalari 8 qiymatdagi darajani ko'rsatganligi va bu miqdor voyaga yetmaganlarda tez ta'sirga berilish, biror faoliyatni amalga oshirishda mustahkam o'rnasha olish va juda tezlik bilan o'zgarib qolishi past ekanligi natijalardan ko'rinib turibdi. Agar odamning o'zini baholashi xulq-atvorni belgilovchi omil bilan tasdiqlanishini



inobatga oldigan bo'lsak, unda uni shaxsga doir boshqa o'zgaruvchilar bilan bo'lgan o'zaro munosabatlarini topish alohida ahamiyat kasb etadi, ya'ni oddiy korrelyatsiyalar ortida sababiy-oqibatli aloqalar yashirin bo'lishi ehtimoldan yiroq emas. Bunday holat esa, o'z navbatda, mazkur aloqalarning o'zini, ularning muqarrarligini tekshirishni taqozo qiladi.

Shuningdek, ijobiy psixik va jismoniy ko'rsatqichlarga ega soxta e'tiqod sohiblari bo'lgan aqlan va jismonan sog'lom insonlar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlab beruvchi tadqiqotlar ham mavjud. Depressiya va depressiya holatidan aziyat chekayotgan insonlar ro'y berayotgan voqealarga adekvat baho bera olishlari isbotlangan, bu baho negativ, ya'ni salbiy, shunday bo'lsada, ijobiy psixologik holatga ega bo'lgan insolarning bahosiga nisbatan adekvatroqligi bilan ajralib turadi.

Quyida berilgan dastur mazmuni, og'ishgan xulq turlarini bartaraf etishga qaratilgan bo'lib, u trening mashg'uloti yoki biror bir terapevtik usul orqali bosqichma - bosqich olib boriladi. Demak dastlabki bosqich:

### ***1. "Menga yoqadigan va yoqmaydigan narsalar" trening mashg'uloti.***

Har bir o'quvchi bir varaq qog'ozga o'ziga yoqadigan va yoqmaydigan narsalarning nomini yozadi. Bunga 5-8 daqiqa vaqt beriladi. Yozib bo'lingach trener yordamida o'qib chiqadilar. Javoblardagi bir-biriga yaqin va mos joylarini belgilab oladilar. Tashkilotchi-trener mashg'ulot yakuniy xulosa qiladi: o'quvchilar, sizlar ko'pchiliksiz, lekin fikr va qarashlaringiz, qiziqishlaringiz bir-biriga yaqin. Shuning uchun ham siz bir-biringizni tez tushinasiz va ahil-inoqsiz. Mazkur trening tekshiriluvchi tanlov guruhlarimiz uchun juda katta taassurot va o'zgarishlar paydo etdi.

### ***2. "O'z-o'zingni angla!" trening mashg'uloti.***

Mazkur mashg'ulot asosan o'smirlardagi ichki nizolarni bartaraf qilishga qaratilgan bo'lib, u o'z-o'zingni angla tamoyiliga tayanadi. Darhaqiqat ichki nizolar bilan kalovlanib qolmaslik uchun avvalo "Men kimman?", "Bu hayotga nima uchun keldim?", "Xayotimning mazmuni nimadan iborat?" kabi savollarga javob topa bilish talab qilinadi. Ya'ni "Men-obrazi"ni to'g'ri tiklash lozim. Shunda shaxs bu hayotda uning uchun nima eng muhim nimalar ikkinchi darajali nimalardan shunchaki voz kechish mumkin ekanligini anglab yetadi. Biroq bu unchalik oson ish emas. O'ziga yarasha sabr, qanoat va mehnat talab qilinadi.

### ***3. "Ertak" trening mashg'uloti***

Treningni olib boruvchi o'smirlar guruhini ikki guruhga bo'ladi ya'ni birini qirol (o'g'il bolalar) va malika (qiz bolalar) deb nomlaydi. Har bir guruhga aniq topshiriq beriladi. Birinchi guruh qonunlar mavjud bo'lgan va ularga rioya qilinadigan mamlakat haqida ertak yozadi. Ikkinchi guruh qonunlar mavjud bo'lmagan va ular



umuman kuzatilmaydigan mamlakat haqida ertak yozadi. Ishlash uchun 10-15 daqiqa kerak bo‘ladi. Har bir guruh o‘z ertaklarini taqdim etadi. Shundan so‘ng munozara davom etadi. Yigitlarga savollarga javob berishga taklif etiladi: Qaysi mamlakatda odamlar yaxshiroq yashashadi? Nima uchun? Siz ham qonunlarning bajarilishini nazorat qilishingiz kerakmi? Sabab? Umuman qonunlar kerakmi? Ularning jamiyat roli qanday?

Ushbu psixoprofilaktik dasturimiz, xalq ta’limi tizimidagi muassasalarda ijtimoiy-psixologik xizmatni kengroq yo‘lga qo‘yish uchun, ishlab chiqilgan va sinovdan o‘tgan bo‘lib, u o‘smirlik yoshida namoyon bo‘luvchi agressiv xulq, huquqbuzarlik, giyohvandlik, daydilik, ichkilikbozlik hamda beparvolik kabi salbiy illatlarning oldini olishga qaratilgan. Mazkur paragraf yuzasidan xulosa qilib aytganda, voyaga etmagan yoshlarda xulq buzilishi va uning profilaktik chora-tadbirlari, quyidagi mezon asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq sanaladi:

1. Birlamchi profilaktika – bu ma’lum bir hodisani keltirib chiqaruvchi salbiy omillarni yo‘q qilishga, shuningdek, insonning o‘sha ta’sirlarga nisbatan qarshiligini oshirishga qaratilgan;

2. Ikki lamchi profilaktika – bu insondagi nopatologik kasalliklarni erta aniqlash va rehabilitatsiya qilish va xavf guruhlari bilan ishlash ya’ni deviant xulq-atvorni o‘zida shakllantirishga moyil bo‘lgan o‘smirlar guruhi bilan ishlash.

3. Uchlamchi profilaktika – bu maxsus muammolarni hal qilish, masalan, xulq-atvor buzulishi bilan kechadigan neyropsixiatrik kasalliklarni davolash, deviant xulq-atvor mavjud o‘smirlarda kasallikning qaytalanishini oldini olish. Aynan, ushbu mezonlarga asoslangan keng qamrovli ijtimoiy-psixologik chora-tadbirlar, muammoni bartaraf etishning eng samarali yo‘nalishi sanaladi.

## **XULOSA**

Voyaga yetmaganlarda xulq o‘gishlari kelib chiqishiga sabab bo‘luvchi oilaviy omillarga ko‘ra, ota-onalarning oilada farzandlariga nisbatan “qahr-g‘azab asosidagi munosabat” yuritishlari, “erkinlik berish asosidagi tarbiya usulida”, “tarbiyada izchillikning yo‘qligi”, “oilada nosog‘lom psixologik muhitning mavjudligi”, “oilada farzandlar tarbiyasiga e’tiborning susayishi”, “ota-onalarning jamiyat axloq normalariga zid bo‘lgan xulqqa ega bo‘lishlari” kabilar sabab bo‘ladi. Bundan tashqari, oilaviy tarbiyada “eskirgan primitiv usullardan foydalanish”, “bolalar tarbiyasiga qariyalarning jalb etilmasligi” va “tarbiyada milliy qadriyatlardan foydalanilmaslik” holatlari ham bolalar va o‘smirlarda xulq og‘ishining kelib chiqishiga ta’sir ko‘rsatadi. Shuni alohida qayd etish lozimki, xulqi og‘ishganlikni psixodiagnostik baholash murakkab vazifa sanalib, har bir mutaxassis ushbu



masalada metodika va testlarni tanlashda ko'proq e'tiborliroq bo'lishi maqsadga muvofiq sanaladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Собчик Л.Н. Искусство психодиагностики. СПб.: Реч, 2014. – С.66. 2.
2. Соколова О.А. Использование методов психологии при диагностировании человека при расследовании и раскрытии преступлений / О.А. Соколова // Юридическая психология. – 2010. – № 4. – С.49 - 51.
3. Umarov B.M. O'zbekistonda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining ijtimoiy-psixologik muammolari. Monografiya. – Toshkent, "Fan" nashriyoti – 2008. –B.117.
4. Tayloqov N.I. Jinoyatchilik va huquqbuzarlikka moyil o'quvchilarni aniqlash va ularni tarbiyalash. «Kamalak» Toshkent – 2017. – 320 b.

